
BIZ BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Kinematografiya agentligi tomonidan tashkil etilgan "Biz bir bo'lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!" shiori ostida loyihalar bu gal Farg'ona viloyati bo'ylab start oldi.

18-20 aprel kunlari "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati va O'zbekiston Kinoarboblari uyushmasi a'zolari hamda taniqli olimlar va ziyolilar bilan uchrashuvlar, yangi kinofilmlar taqdimoti, ijodiy kechalar va madaniy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tadi.

Karvonning ilk manzili "Xonariq" MFYdagi Madaniyat markazi binosida xalqimiz suygan ijodkorlar aholi vakillari bilan uchrashdilar.

Xalqimiz ekranlarda ko'rgan, so'zidan, qilgan ishlaridan ta'sirlangan film qahramonlari, ijodkorlar guruhi bilan uchrashdi. Tadbirda kuy va qo'shiqlar yangradi. Shundan so'ng, aholi uchun vatanparvarlik, xalqqa sadoqat, yurtga muhabbat tasvirlangan filmlar namoyishi ham bo'lib o'tadi.

2024-04-18 15:15:02